



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
1-bosqich talabasi. Abdurayimova Madina Farxod Qizi
Email: abduvaraimovamadina36@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanishning turli jihatlarini ko'rib chiqadi. Til o'rganish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari, xususan, grammatika, talaffuz va lug'atboyligini rivojlantirishdagi orni tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, interaktiv o'rganish platformalari va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar yordamida o'rganuvchilarning samaradorligi qanday oshishi mumkinligi haqida ham so'z yuritiladi. Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining cheklovlari va kamchiliklari, masalan, kontekstni noto'g'ri tushunish yoki nozik muloqot jihatlarini sezmaslik kabi muammolar ham e'tiborga olinadi. Umuman olganda, maqola sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganishda samarali vosita sifatida qanday ishlashini va uning kelajakdagi rivojlanishini muhokama qiladi.

Kalitso'zlar: Ingliz tili, Sun'iy intellekt, Til o'rganish, Grammatikani o'rganish, Talaffuz, Interaktiv o'rganish, Shaxsiylashtirilgan yondashuv, Tilni o'rganish texnologiyalari, O'qitish platformalari,

Annotation: This article examines various aspects of the use of artificial intelligence in learning English. It analyzes the advantages of AI technologies in the language-learning process, particularly their role in developing grammar, pronunciation, and vocabulary skills. The article also discusses how interactive learning platforms and personalized approaches can enhance learners' effectiveness. However, the limitations and drawbacks of artificial intelligence technologies—such as misinterpreting context or failing to recognize subtle communicative nuances—



are also considered. Overall, the article explores how AI can function as an effective tool in learning English and discusses its potential future development.

Key words: English language, Artificial intelligence, Language learning, Grammar acquisition, Pronunciation, Interactive learning, Personalized approach, Language-learning technologies, Educational platforms.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные аспекты использования искусственного интеллекта при изучении английского языка. Анализируются преимущества технологий ИИ в процессе обучения, в частности их роль в развитии грамматики, произношения и словарного запаса. В статье также обсуждается, каким образом интерактивные обучающие платформы и персонализированные подходы могут повысить эффективность учащихся. Наряду с этим рассматриваются ограничения и недостатки технологий искусственного интеллекта, такие как неправильное понимание контекста или неспособность уловить тонкие коммуникативные нюансы. В целом, статья раскрывает, как ИИ может выступать эффективным инструментом в изучении английского языка, а также обсуждает перспективы его дальнейшего развития.

Ключевые слова: английский язык, искусственный интеллект, изучение языка, освоение грамматики, произношение, интерактивное обучение, персонализированный подход, языковые образовательные технологии, обучающие платформы

Kirish qismi: Ingliz tilini o'rganish bugungi kunda global kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Dunyo bo'ylab millionlab odamlar ingliz tilini o'rganishga harakat qilmoqda, chunki bu til xalqaro savdo, ilm-fan, texnologiya va madaniyatda keng tarqalgan. Tillarni o'rganish jarayoni esa doimo murakkab va vaqt talab qiladigan bo'lgan, ayniqsa, grammatika, so'z boyligi va talaffuz kabi ko'plab



jihatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, texnologiyaning rivojlanishi va sun'iy intellektning (SI) imkoniyatlari ingliz tilini o'rganishda yangi ufqlarni ochmoqda. Sun'iy intellect asosidagi tizimlar va dasturlar til o'rganish jarayonini soddalashtirib, uni yanada samarali va interaktiv qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasida, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) til o'qitish metodikasiga chuqur kirib keldi. ChatGPT, Duolingo, Elsa Speak, Grammarly kabi SI asosidagi dasturlar ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qildi. Bu maqolada ingliz tilini o'rganishda sun'iyintellektdan foydalanishning imkoniyatlari, afzalliklari va muammolarini ko'ribchiquamiz.

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari Sun'iy intellekt foydalanuvchining bilim darajasini tahlil qilib, individual yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, Duolingo dasturi foydalanuvchining xatolarini qayd etadi va shunga mos mashqlarni taklif qiladi. ChatGPT esa interaktiv suhbat orqali o'rganuvchining so'z boyligini kengaytiradi.

2. Til o'rganish jarayonida SI vositalari

- **Chat-botlar (ChatGPT, Replika):** suhbat orqali amaliy nutqni rivojlantiradi.
- **Talaffuz dasturlari (Elsa Speak, Google Assistant):** talaffuzni to'g'rilashda yordam beradi.
- **Grammarly:** grammatik xatolarni avtomatik aniqlaydi va tuzatish taklif qiladi.
- **Tarjima dasturlari (DeepL, Google Translate):** matn tushunishni osonlashtiradi.

3. Afzalliklari

- Individual ta'lim yondashuvi



- Qulaylik va vaqt tejilishi
- Interaktiv muloqot orqali motivatsiyani oshirish
- Natijalarni avtomatik tahlil qilish

4. Muammolar va cheklovlar

Biroq SI texnologiyalarining ham cheklovlari mavjud. Ular insoniy his-tuyg'ularni to'liq anglay olmaydi, ayrim holatlarda noaniq tarjimalar beradi yoki noto'g'ri grammatik tavsiyalar berishi mumkin. Shu bois, SI vositalarini o'qituvchilar nazorati ostida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ular individual yondashuv, avtomatlashtirish va muloqot orqali o'rganish samaradorligini oshiradi. Kelajakda SI vositalarini ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilish til o'rganishning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Sun'iy intellekt(AI) talimda bir necha rol o'ynaydi:

Intellektual repititorlik tizimlari: Uyda turib, vaqtimizni tejagan holda sun'iy intellektga asoslangan repititorlik tizimlari o'quvchilarga zudlik bilan fikr-mulohaza va yo'l-yo'riq berib, ularga qiyin tushunchalarni tushunish va malakalarni oshirish imkoniyatini beradi.

Til o'rganish: Sun'iy intellekt asosida til o'rganish platformalari individual o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan interfaol darslar, talaffuz bo'yicha fikr-mulohazalar va yo'l-yo'riq berib, ularga qiyin tushunchalarni tushunish va til amaliyoti mashqlarini taqdim etishi mumkin. Shuningdek, Speakall, IELTS speaking, Elsa speak, English9 AI ilovalari orqali turli millat vakillari orqali suhbatlashish, har kunlik so'zlashish mashqlarini bajarish bilan speaking skill ya'ni so'zlashish darajamizni yanada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lamiz.



Ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish: AI baholash, rejalashtirish va hisobni yuritish kabi ma'muriy vazifalarni soddalashtirishi mumkin, bu esa o'qituvchilarning o'quvchilarni o'qitish va ularga maslahat berishga e'tibor qaratish uchun vaqtini bo'shatish imkonini beradi.

Duolingo-mustaqil til o'rganish uchun onlayn loyiha (2012-yil iyun oyida boshlangan). Uni rivojlantirish va yaratish g'oyasi amerikalik professor Lui fon Andon tomonidan kelib chiqqan. Bu loyihaning asl mohiyati odamlarga bepul til o'rgatish va ularning tarjima ishlarini olib borishga yordam berishdir. Hozirgi paytda internet ma'lumotlarining 70 foizi ingliz tilida. Bu loyihaning til o'rgatishdan asl mazmuni o'z ona tilida topolmagan ma'lumotlarni boshqa tillarda topish uchun imkon yaratdi. Qo'shimchasiga bu ilova faqat ingliz tilini o'rgatibgina qolmay balki boshqa tillarni o'rgatish uchun ham mo'ljallangan.

Umuman olganda, sun'iy intellekt o'rganishni shaxsiylashtirgan qulay va samarali qilish orqali ta'limni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, ingliz tilini o'rganishda hamda mustaqil o'rganishda sun'iy intellektning o'rni beqiyos. Turli xil ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan platformalar Duolingo, Englishclass, Memrise, BBC Learning English, Lingoda kabilar orqali yoshlarimiz qiyinchiliksiz o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishmoqda.

Xulosa: Chet tillarini o'qitish sohasida SIning paydo bo'lishi innovatsion uyg'unlikdagi o'quv muhitiga zamin yaratdi. Sun'iy intellektga asoslangan platformalar endi turli geografik va madaniy kelib chiqishga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtirish mumkin; bu esa til amaliyoti va madaniy almashinuvni yaxshilaydi. Bunday muhit o'quvchilarga butun dunyo bo'ylab tengdoshlari bilan haqiqiy suhbatlar va hamkorlik loyihalarida qatnashish uchun imkoniyatni taqdim etadi va shu bilan birga ularning lingvistik va madaniy tushunchalarini boyitadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marmadiyeva Bakhtiyo qizi,F.,Mukhiddinova Sharofiddin qizi,O., va Abduraimov Anvar o`g`li,S.(2020).Digital pedagogy and online assesment in ESL.International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS),10(10),201-204.
2. Abduraxmonova, M, Karimova,G.. va Karimova M (2021) Ta`limda texnologiyaning ahamiyati,455-457
3. Suyunov J.Y,(2021),Kompyuter immitatsion modellari asosida faol o`qitish texnologiyasining nazariy asoslari,459-466
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining „Raqamli ta`limni rivojlantirish konsepsiyasi” to`g`risidagi Farmoni.2023-yil
5. Kambarov N. M.(n.d).Zamonaviy ta`lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,2023